

JAHON TILSHUNOSLIGIDA DISKURS NAZARIYASINING ILMIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.017>

Dilafruz Madazizova
FarDU

Annotatsiya: Mazkur maqolada diskurs nazariyasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Diskurs tushunchasining til tizimi, nutq faoliyati, kommunikativ vaziyat va ijtimoiy-madaniy omillar bilan uzviy bogʻliqligi yoritiladi. Shuningdek, diskursning matn, kontekst, pragmatika va kognitiv jarayonlar bilan aloqasi zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida izohlanadi. Maqola natijalari diskurs tahlilining nazariy asoslarini chuqurlashtirish va uni amaliy tadqiqotlarda qoʻllash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: diskurs, matn, dialog, nutq, nutqiy jarayon, murakkab kommunikativ hodisa, nutqiy akt, tildagi til

SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF DISCOURSE THEORY IN WORLD LINGUISTICS

Dilafruz Madazizova
FarDU

Abstract: This article analyzes the formation, stages of development, and scientific-theoretical foundations of discourse theory. It highlights the interrelation of the concept of discourse with the language system, speech activity, communicative situation, and socio-cultural factors. Furthermore, the relationship of discourse with text, context, pragmatics, and cognitive processes is explained on the basis of modern linguistic approaches. The results of the study contribute to deepening the theoretical foundations of discourse analysis and expanding the possibilities of its application in practical research.

Keywords: discourse, text, dialogue, speech, speech process, complex communicative phenomenon, speech act, language within language

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda kommunikativ munosabatlarni chuqurroq anglash maqsadida diskurs va uning lisoniy ifodasi tadqiqiga keng eʼtibor qaratilmoqda. Diskurs muloqot jarayoni va uning mahsuli boʻlib, unda nutq ishtirokchilarining

maqsadlari ifodalanadi. Diskurs tushunchasi faqatgina til birliklarining tizimli tahlili bilan chegaralanib qolmay, balki ularning kontekstual, ijtimoiy, madaniy va pragmatik xususiyatlari tahlilini ham o'z ichiga oladi. Shu bois, bugungi kun tilshunosligida diskurs tahlili kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistika va pragmatika kabi fanlar doirasida o'rganilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA:

Diskurs va uning mazmun-mohiyati M.Fuko, Z.Harris, D.Crystal, E.Benvenist, V.Borotko, Van Deyk, M.Kartsy, J.Ostman, V.Demyankov, Y.Stepanov, E.Kubryakova, N.Arutyunova, B.Chernyavskaya, A.Kibrik kabi tilshunos olimlar tomonidan keng tadqiq etildi. Mahalliy va qardosh davlat tilshunos-olimlari A.Tumanova, Sh.Safarov, M.Hakimov, L.Raupova, V.Sobirova, M.Ergashev, G.Odilova, M.Mamajonov tadqiqotlarida ham diskursga oid masalalarga munosabat bildirilgan.

Zamonaviy tilshunoslikda kommunikativ munosabatlarni chuqurroq anglash maqsadida diskurs va uning lisoniy ifodasi tadqiqiga keng e'tibor qaratilmoqda. Diskurs muloqot jarayoni va uning mahsuli bo'lib, unda nutq ishtirokchilarining maqsadlari ifodalanadi. Diskurs tushunchasi faqatgina til birliklarining tizimli tahlili bilan chegaralanib qolmay, balki ularning kontekstual, ijtimoiy, madaniy va pragmatik xususiyatlari tahlilini ham o'z ichiga oladi. Shu bois, bugungi kun tilshunosligida diskurs tahlili kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistika va pragmatika kabi fanlar doirasida o'rganilmoqda.

Diskurs tushunchasining ilmiy muomalaga kirib kelishi o'tgan asrning 70-80 yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda jahon tilshunoslarining e'tibori gapdan kattaroq birliklar tahliliga, xususan, ularning leksik yoki grammatik strukturasidan ko'ra, mantiqiy anglanishi yoki gaplarning bir-biriga mantiqiy bog'lanishiga qaratildi. Ushbu ilmiy qiziqishlar natijasi tilshunoslik ilmiy maydonida yangi tushuncha - "diskurs" atamasini shakllantirdi.

"Diskurs" atamasi etimologik jihatdan ikki xil talqin qilinadi: ayrim manbalarda uning lotin tilidan olingani qayd etilsa, boshqalarida fransuz tilidan kirib kelgani ta'kidlanadi. Lotin tilidan olingani haqidagi qarashning o'zida ham ikki xil, ba'zan bir-biriga zid fikrlar mavjud. Masalan, "Энциклопедии эпистемологии и философии науки" nomli ensiklopediyada "diskurs" atamasi lotincha "discurrere" (so'z turkumidan "ot"ga xos) so'zidan olingan bo'lib, "muhokama", "muzokara", "o'zaro aytishish" kabi ma'nolarni ifodalashi qayd etilgan. "Краткий словарь философских терминов" lug'atida esa lotincha "discere" (so'z turkumidan "fe'l"ga xos) so'zidan olinganligi va "fikir qilmoq", "fikir yurgizmoq", "fikrni bayon etmoq", "fikrni tushuntirish", "fikrni isbotlashga urinmoq" kabi ma'nolarni anglatishi ko'rsatilgan.

"Diskurs" atamasining etimologiyasiga oid yana bir manbada uning fransuz tilidan kirib kelgani qayd etilib, "nutq", "nutqning yaratilishi", "nutqning adresati";

“matn”, “matnning ta’siri va natijasi” kabi ma’nolar, shuningdek, “yuz ifodalari, imoishoralar, tipik vaziyatlar va turli xil his-tuyg’ularni tilda ifodalash jarayoni” kabi ma’nolarni ham o’z ichiga oladi.

Zamonaviy ensiklopedik lug’atlarda havola etilgan nazariyalar ham yuqoridagi fikrni qo’llab, diskurs atamasi fransuz tilidagi “discours” so’zidan olinganligi va “nutq”, “fikrlash”, “so’zlovchining tinglovchiga to’g’ridan-to’g’ri murojaat qilishi” kabi ma’nolarni anglatib, “xat”, “matn”, “bayonot turi” deb talqin etiladi.

Yuqoridagi ta’riflarni tahlil etish shuni ko’rsatadiki, “diskurs” atamasining kelib chiqishini lotin va fransuz tillari bilan bog’liq asoslar mavjud.

Diskursning fanlar doirasidagi talqinlari tarixiga nazar solinsa, u birinchi bo’lib XVII-XVIII asrlarda falsafa sohasida qo’llanila boshlagan. Tilshunoslikda esa bu atama XX asrning ikkinchi yarmida, tilshunoslik sohalaridagi jadal izlanishlar natijasida vujudga kelgan bir qancha yangi atamalar qatorida paydo bo’ldi. Amsterdamlilik tilshunos Teun van Deyk diskursning tilshunoslikda kechroq shakllanganini shunday izohlaydi: “dastlabki tadqiqotlarda tilga faqat formal, ya’ni uning grammatik, fonologik va morfologik tuzilishiga oid masalalar nuqtayi nazaridan yondashilgan”. Darhaqiqat, Ferdinand de Sossyur o’zining “General Linguistics” nomli kitobida: “Diskurs individual shaxslarning nutqidagi til xususiyatlarini emas, balki uning mavhum, sistematik va qoidali boshqarilishini o’rganishga e’tibor qaratishi lozim”, degan yondashuvni ilgari surgan edi. Uning bunday yondashuvi o’sha davrda tilni formal va tavsifiy o’rganilishiga katta ta’sir ko’rsatdi.

1952-yilda amerikalik tilshunos Zelling Harris “Discourse analyses” nomli maqolasida “diskurs tahlili” tushunchasini birinchilar qatorida tilshunoslikka, ya’ni ilmiy maydonga olib kirdi. Bu esa tilshunoslikda “diskurs” tadqiqi uchun boshlang’ich nazariy asos bo’lib xizmat qildi va tilshunoslikning “dominant nazariyalardan biri” ga aylandi. Z.Harris “diskurs”ni ma’lum bir vaziyatda bir yoki bir necha kishilar tomonidan ketma-ket aytilgan fikr yoki ketma-ket yozilgan jumlar” deb ta’rifladi. U o’z maqolasida diskurs tahlili uchun ikkita asosiy narsaga alohida e’tibor qaratdi, birinchidan, matnning uyg’unligi, ikkinchidan, madaniyat va til o’rtasidagi munosabatni, aniqrog’i, ekstralingvistik va lingvistik omillarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq ekanligini ta’kidladi. Uning fikriga ko’ra, lingvistik materialni tasodifiy so’z yoki jumlada tekshirib ko’rish kerak emas, balki uni undan foydalangan nutqda ko’rib chiqilishi kerak. Diskurs bir so’z yoki bir nechta gap, hatto butun bir asarning bayoni bo’lishi ham mumkin. Diskurs turli shakllarda namoyon bo’lsa-da, asosiy e’tibor gaplardagi izchillik, vaziyat va mazmunga qaratiladi”.

Bu borada tilshunos Emil Benvenist ham “General Linguistics” (Umumiy tilshunoslik) nomli asarida “ifoda” nazariyasini ishlab chiqdi va an’anaviy fransuz tilshunosligidagi “diskurs” atamasini yangi ma’noda - “so’zlovchi tilini o’zlashtirish

(tushunish) jarayoni" deb qabul qildi. U ham boshqa olimlar kabi diskurs mohiyatida asosiy e'tiborni tushunish va fikrlashga qaratgani kuzatiladi.

Z.Harris diskursni muayyan vaziyat va madaniy muhitdagi nutq sifatida baholaydi, E. Benvenist esa Z. Harris fikriga asoslanib, diskursdan foydalanishda individuallik omilini ham hisobga oladi. Uning fikriga ko'ra, so'zlovchi bilan til o'rtasida o'rnatilgan munosabat gapning lingvistik xususiyatlarini belgilaydi. Gap tildan vosita sifatida foydalanadigan va so'zlovchi bilan til o'rtasidagi munosabatda namoyon bo'ladigan lisoniy xususiyatlarni hisobga olgan holda so'zlovchining harakati sifatida ko'rib chiqilishi kerak. E. Benvenist o'z imiy izlanishlarida til va diskurs o'rtasidagi farqni ochib beradi, uning fikriga ko'ra, diskurs so'zlovchidan tinglovchiga qaratilgan tildan foydalanishning bir martalik individual harakati bo'lib, ma'lum bir tanlangan lingvistik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Diskurs suhbatning maqsadini, so'zlovchining dunyoqarashi va ijtimoiy-psixologik holatini belgilab, uning shaxsiyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa omillarni ham qamrab oladi. Muloqot jarayonida har bir nutq aniq yoki bilvosita kimgadir qaratilgan bo'lib, u suhbatdoshning mavjudligini bildiradi. Shu bois olim: "Diskurs - shaxs tomonidan o'zlashtiriladigan nutq" - deb ta'kidlaydi.

Rus tilshunosi N.Arutyunova diskursni "ekstralingvistik, pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan uyg'unlashgan matn deb ta'riflaydi. Biroq tilshunos Van Deyk rus tilshunosi N.Arutyunova va u kabi diskursni "matn" deb ta'riflagan tilshunoslar fikriga quyidagicha munosabat bildirib o'tadi: "Matn - diskurs emas, matnga faqat obyekt sifatida qaraladi, obyekt hech qachon o'z- o'zidan diskurs bo'la olmaydi. Matn subyekt tomonidan mutolaa qilinsa yoki subyektlar u haqida mulohaza yuritsalar (o'rganish davomida subyekt fikrlaydi, o'zi bilan o'zi intrapersonal muloqot qiladi, ya'ni kommunikativ hodisaga aylantiradi, yoki boshqa adremlar bilan birgalikda tahlil qilinsa) u diskursga aylanadi". Tilshunos V.I.Karasik ham bu fikrni ma'qullab, diskursni "muloqot holatiga aylangan matn", - deb ta'riflaydi.

Diskursning tadqiqot maydoniga kirib kelishi nafaqat tilshunoslikda, balki jamiyatning boshqa sohalarida ham uning talqin etilishi hamda yangi nazariyalar yaratilishiga turtki bo'lmoqda. Biroq sohalararo olib borilayotgan tadqiqotlar ko'lamining kengligi, unga berilgan turli ta'rif va nazariyalar "diskurs" tushunchasini tushunish va o'rganish darajasini yanada murakkablashtirmoqda. Birgina tilshunoslik sohasida mavjud bo'lgan turli qarash va nazariyalar yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Masalan, A.Kibrik: "Diskurs kommunikantlarning ongini o'z ichiga olgan kommunikativ vaziyat va muloqot jarayonida yaratilgan matn", R.A.Karimova: "Diskurs - matn bilan birga uning hosil bo'lishi va qabul qiluvchiga ta'sir etuvchi, lingvistik bo'lmagan omillarni o'z ichiga olgan murakkab hodisa", V.E.Chernyavskaya: "Diskurs - muayan kognitiv va tipologik tarzda shartli aloqa makoni sifatida amalga oshiriladigan kommunikativ hodisa", T.Milevskaya: "Diskurs

- kommunikativ nutqiy harakatlar to'plami", K.F.Sedov: "Diskurs - ekstralingvistik, xususan, psixologik, ijtimoiy va shaxs ongi bilan bog'liq omillarni mujassam etgan nutq tushunchasini anglash", - deb talqin etgan bo'lsalar, o'zbek tilshunoslari M.Hakimov: "Gapdan anglashilgan mazmun bilan subyekt munosabati", L.Raupova: "Fikrni bayon qilish jarayoni, lisoniy imkoniyatlarning yozma yoki og'zaki moddiy voqeanishi, lisoniy va nolisoniy vositalarning birgalikda ishlatilishi, lingvo-etno-psixo-situatsion omillar majmuyi", M.Ergashev: "Abstrakt tushuncha, nutq mahsulotini yaratish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar va nutq ishtirokchilari, shuningdek og'zaki va yozma nutqning ayrim holatlarida qo'llaniladigan til", M.Mamajonov: "Diskurs bog'li matn, suhbat va dialog tushunchalari", G.Komiljonova: "Har qanday matn diskurs bo'la olmaydi, oddiy bir she'r yoki hikoya diskurs emas, u tashqi omillar bilan uyg'unlikda qaralganda diskurs sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni "diskurs = nutq + lisoniy omillar" formulasi haqiqatga yaqin model hisoblanadi", - deb e'tirof etadilar.

Tilshunos V.Karasikning ta'kidlashicha, matn obyekt sifatida mavjudlikdan chiqib, muloqot jarayoniga, ya'ni diskursga aylanadi. Teun van Deykning fikriga ko'ra esa, diskursga faqat matn emas, balki borliqdagi turli jismlar hamda mavhum tushunchalar ham aylanishi mumkin. Shunday qilib, subyektlar uchun istalgan abstrakt yoki moddiy obyekt fikrlash, tahlil va muhokama jarayonining obyekti, ya'ni diskurs bo'lish imkoniyatiga ega.

Diskursni nutq faoliyati sifatida talqin etgan tilshunoslardan yana biri V.Krasnix bo'lib, u diskursni "kundalik so'zlashuv faoliyati jarayonida yuzaga keladigan nutqiy harakat" sifatida izohlaydi hamda ushbu jarayon maxsus nutqiy maqsadni talab etmasligini ta'kidlaydi. Krasnixning talqini diskursni oddiygina kundalik nutq faoliyati sifatida tushunishga olib keladi.

Yu.Stepanov diskursni "ma'lum kommunikativ harakatlarda qo'llaniladigan tildagi til" deb izohlaydi. Tilshunos bu ta'rif orqali diskursni bir-biri bilan yaqin munosabatda bo'lgan tanish shaxslar tomonidan muloqotning ifodaviyligini (ekspressivligini) kuchaytirish maqsadida qo'llaniladigan sotsiolektlarga (sleng, argo, jargon, varvarizm) ham ishora qilgan bo'lishi mumkin.

Tilshunos Teun van Deyk o'zining "Язык. Познания. Коммуникация" deb nomlangan kitobida "diskurs nutq faoliyati emas, balki kommunikativ muloqotning yakuniy natijasi yoki kommunikativ harakatning mahsuli" deb talqin etadi. Tilshunosning bunday nazariy yondashuvini "diskurs - nutqiy faoliyat" tarzidagi ta'riflar qatoriga kiritib bo'lmaydi, chunki ushbu kontekstda diskurs kommunikativ jarayonning natijasi sifatida talqin qilinmoqda.

Diskurs etimologiyasiga oid ta'riflardan birida u "fikr qilmoq", "fikr yuritmoq", "fikrni bayon etmoq", "fikrni tushuntirmoq" va "fikrni isbotlashga urinmoq" kabi ma'nolarni bildirishi qayd etilgan. Bunday ta'rif diskursni to'laqonli anglash uchun

keng qamrovli bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Xorijiy tilshunos Teun van Deyk o'z ma'ruzasida bu fikrni quyidagicha izohlagan: "In order to produce and understand discourse you need a vast amount of knowledge and one needs to activate them. Texts are like iceberg. They give only information which people don't know yet. The vast amount of knowledge is not in the texts, it is in our mind, because people read texts, activate them and also construct, as well as interpret them", ya'ni tilshunosning fikricha, diskursni ishlab chiqish, tushunish va uni faollashtirish uchun katta hajmdagi bilim zarur. Matnlar aysberglarga o'xshaydi: ular faqat odamlar hali bilmagan ma'lumotlarni beradi, xolos. Aslida bilimning asosiy qismi matnlarda emas, balki inson ongida mavjud bo'ladi. Chunki matnlar o'qiladi, faollashtiriladi, qayta tuziladi va sharhlanadi. Tilshunos o'zining ana shu nazariyasiga tayangan holda "knowledge comes through discourse" ("bilim diskurs orqali o'zlashtiriladi") degan xulosani ilgari suradi. Unga ko'ra, insonning boshlang'ich bilimlari, jumladan, ko'rish, eshitish, ushlab ko'rish, his qilish, bajarib ko'rish kabi amaliy yoki kundalik tajribalari natijasida shakllansa-da, ularning eng katta va asosiy manbai diskurs bo'lib, matn va suhbat ("text and talk") hamda kundalik tajriba ("everyday experience") orqali muntazam boyib boradi.

Ibtidoiy bilimlar borliqdagi barcha narsa va voqealarni inson tafakkurida aks ettiradi, ya'ni ularning "mental model"i inson ongida freymlanadi. Tilshunos Van Deyk bu hodisani kontekstning yaratilishi deb baholab quyidagicha sharhladi: "Context is a mental model of a communicative situation, so it is not out there it is in here (mind)". Uning fikriga ko'ra kontekst ijtimoiy vaziyatning bir qismi u kommunikativ vaziyat jarayonida subyektning mental modeli hisoblanadi. Demak, jamiyatning har bir a'zosi mental model egasi bo'la olishi tabiiy, chunki ularning har biri individual kontekst yaratuvchilardir va albatta, bularning barchasi inson aqliy faoliyatining boshqaruvi natijasida amalga oshiriladi. Obyektiv borliq haqidagi tushunchalar va axborotlar mental modeli "ilmiy bilim sifatida inson aqliy faoliyatining eng yuqori bosqichida hosil bo'lib", kognitiv interfeys (*cognitive interface* - insonning fikrlash, va tushunish jarayonlari bilan bog'liq)ni shakllantiradi va "taffakurda kommunikativ niyatning paydo bo'lishi, lingvistik borliq sifatida yuzaga chiqishi uchun fundamental baza vazifasini o'taydi". Demak, inson tafakkurida obyektiv olam birliklarini ifoda etuvchi ana shu tushunchalar inson tasavvurida ijtimoiy-pragmatik kontekstni tashkil qiladi, tafakkurda hosil bo'lgan ijtimoiy-pragmatik kontekst ifoda belgilari orqali voqealanadi. So'zlovchi nazarda tutgan kontekst ongda shakllanib, lingvistik birliklar va til orqali nutqda voqealanadi. Mana shu hodisa diskurs hisoblanadi. Shuning uchun aqliy faoliyat boshqaruvi yordamida borliq olamida mavjud har bir obyekt, hodisa-voqealarni sinchkovlik bilan kuzatish jarayonida ijtimoiy pragmatik tasavvurlar inson ongida shakllanadi. Abu Nasr Farobiyning ichki va tashqi ong haqidagi qarashlari ham ahamiyatga molikdir. Uning

ta'kidlashicha, tashqi ong - o'qish, tajriba asosida bilish inson tafakkuridagi ilmiy va amaliy bilim ko'nikmalarini shakllantiradi, bunday bilimlar esa nutqiy muloqot jarayonini amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Teun van Deyk shu kabi intrapersonal muloqot jarayonlarini ham diskurs deb baholaydi. Olimning fikriga ko'ra, "Diskurs tashqarida emas, u bizning ongimizda. Bizni o'rab turgan har bir obyekt diskurs bo'la oladi, agar u fikr yuritish yoki muhokama qilish obyektiga aylansa".

Zamonaviy tilshunoslik nazariyasida "diskurs matnga xos bo'lgan lingvistik xususiyatlar bilan bir qatorda, ekstralingvistik parametrlar (muloqot ishtirokchilari, ularning kommunikativ maqsadlari, pragmatik munosabati, ijtimoiy rollari, nutq so'zlariga oid asosiy bilimlar)ga ega bo'lgan murakkab kommunikativ hodisadir".

O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, turli davrlarda diskurs mazmunini talqin qilish sezilarli darajada o'zgargan. Masalan, bir guruh tilshunoslar uni "matn" deb izohlagan bo'lsa, boshqa bir guruh tadqiqotchilar uni "nutq faoliyati" deb, yana boshqalari esa "kommunikativ hodisa" deb baholagan.

Tilshunoslik bilan bir qatorda, nolisoiy fanlar - ya'ni tilshunoslik yo'nalishiga yondosh bo'lmagan psixologiya, sotsiologiya, etnologiya, yurisprudentsiya kabi sohalarda ham "diskurs"ga oid turlicha, bir-biridan farqli talqinlar mavjud. Bu xilma-xillik "diskurs"ni tushunish masalasining murakkabligini ko'rsatadi va uning uchun yagona, umume'tirof etilgan ta'rif yo'qligini bildiradi. Bunday holat esa "diskurs" masalasining hanuz ochiq va dolzarb ekanini anglatadi. Ana shu nuqtayi nazardan, diskurs mavzusi zamonaviy tilshunoslikning muhim masalalardan biriga aylangan.

Diskurs haqida tilshunos izlanuvchilar tomonidan havola etilgan ilmiy qarash, gipoteza va ta'riflarni o'rganib, ularga tayangan holda, biz diskurs haqida quyidagi xulosalarga keldik: Demak, "diskurs" atamasi tilshunoslikda yangi yo'nalish sifatida XX asrda Z.Harrisning maqolasida namoyon bo'lgan. Bu atamaning lotin tili (ot sifatida - muhokama, muzokora; fe'l sifatida - fikr qilmoq, fikrni tushunmoq, fikrni bayon etmoq) hamda fransuz tili (nutq, fikrlash, murojaat qilish)dan, ya'ni ikki xil tildan olinganligi ko'rsatilgan bo'lsada, ularning ma'no talqinlari deyarli bir xil.

Z.Harris maqolasi diskurs tadqiqotlari uchun yagona asos bo'lishiga qaramay, hozirgacha olib borilgan ilmiy izlanishlarda u bo'yicha yakdil qabul qilingan ta'rif yoki nazariya mavjud emas. Bu esa diskursni tushunishda chigallik va murakkablikning asosiy sabablaridan biridir. Masalan, diskurs Harris uchun: "ma'lum bir vaziyatda bir yoki bir necha kishilar tomonidan ketma-ket aytilgan fikr yoki ketma-ket yozilgan jumlar", E.Benvinist, T.Milevskaya, V.Krasnix, N.Sedov uchun: "nutq" yoki "nutqiy harakat", A.Kibrik, N.Arutyunova, V.Karasik, M.Mamajonov uchun "matn", Van Deyk, R.Karimova, V.Chernyavskaya uchun u: "kommunikativ hodisa", Y.Stepanov, M.Ergasev uchun esa diskurs "til" yoki "tildagi til".

XULOSA

XX asr tilshunosligida tilni jamiyatdagi funksiyalari asosida o'rganishga bo'lgan qiziqish "diskurs" tushunchasining shakllanishiga olib keldi. "Diskurs" turlicha: "nutqiy jarayon", "matn", "kommunikativ hodisa", "tildagi til" kabi talqin etilib, hanuzgacha yakdil ta'rifga ega emas. Bu esa uning tadqiq doirasi ochiq qolayotganini ko'rsatadi.

"Diskurs" bizning tadqiqotimizda quyidagicha ta'riflanadi: "Diskurs - bu murakkab kommunikativ hodisa bo'lib, u obyekt haqidagi anglangan mazmunning subyekt ongida individual bilim va tajriba asosida shakllanuvchi tafakkur jarayoni hamda ushbu tafakkur natijasida yuzaga kelgan mental modelning lingvistik va ekstralingvistik vositalar orqali ifodalanishidan iborat nutqiy jarayondir".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. - М.: Советская энциклопедия, 1990. - С.135-138;
2. Боротко В.Г. Элементы теории дискурса. - М.: Высшая школа, 1981. - 144 с;
3. Ван Дейк. Язык. Познание. Коммуникация: сборник работ. - М.: Прогресс, 1989. - 312 с.;
4. Гуо Х. Особенности дискурса художественного произведения // Молодой учёный. - Казан, 2017. - № 20 (154). - С.482-487;
5. Демьянков В.З. Доминирующие лингвистические теории в конце XX века // Язык и наука в конце XX века. - М.: РГГУ и Институт языкознания РАН, 1995. - 239-320 с.;
6. Ингарден Р. Исследование по эстетике. - М.: Искусство, 1962. - 572 с.;
7. Карасик В.И. О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс // Перемена. Волгоград, 2000, - С.4-21;
8. Каримова Р.А. Семантико-структурная организация текста (на материале устных спонтанных и письменных текстов). - Уфа: издательство БашГУ, 1991. - С.8.
9. Кибрик А.Е. Моделирование языковой деятельности в интеллектуальных системах. - М., 1987. - С.41.
10. Кубрякова У.С. Эволюция лингвистических идей во второй половине XX в. (опыт парадигмального анализа) // Язык и наука конца XX века: сб. статей / под ред. акад. Ю.С. Степанова. - М., 1995. - С.143-239;
11. Красных В.В. Основы психолингвистики и теории коммуникации. - Москва: ИТДГК Гнозис, 2001. - С.189.
12. Литература и язык: современная иллюстрированная энциклопедия / под ред. А. П. Горкина. - М.: Росмэн-Пресс, 2006. - 83 с.;

13. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. Ярцева В.Н. - М.: Сов. энциклопедия, 1990. - С. 136-137.
14. Макаров М.Л. Интерпретативный анализ дискурса в малой группе. - Тверь: Изд-во ТвГУ, 1998. // Макаров М.Л. Основы теории дискурса. - М.: ИТДГК Гнозис, 2003. - 280 с.;
15. Мамажонов М.Ю. Антропонимлар дискурс релеванти сифатида: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. - Фарғона, 2000. - 157 б.
16. Мартиросьян Е.Г., Самарская Т.Б. Художественный дискурс: специфика составляющих и особенности организации художественного текста // Сфера услуг: инновации и качество. - М., 2012. - №10. - 20 с.;
17. Мельничук О.А., Мельничук Т.А. Стратегии художественного дискурса // Вопросы когнитивной лингвистики. - Тамбов, 2013. - №1. - С.124-136;
18. Милевская Т.В. Дискурс и текст: проблема дефиниции. - М., 1979. - С.221.
- 19.Одилова Г.К. Хусусий дискурслар лингвомаданий талқинининг назарияси ва амалиёти (глутоник дискурс): Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. - Фарғона, 2020. - 310 б.;
20. Олизько Н.С. Художественный дискурс как полилог автора, читателя и текста // Вестник Челябинского государственного университета. - Челябинск, 2011. - №33. - С.163-167;
21. Раупова Л.Р. Диологик дискурсадаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фан. д-ри... дисс. - Тошкент, 2012;
22. Сафаров Ш.Ж. Структура дипломатического дискурса и его лексико-фразеологический состав (на материале английского языка): Дисс.... канд. филол. наук. - Самарканд, 2000;
23. Седов К.Ф. Дискурс и личность. - М., 2004. - С.7.
24. Собирова В.К. Литература кыргызского зарубежья как часть общего социально-культурного контекста Кыргызстана (дискурсивно-концептуальный анализ): Автореф. дисс... д-ра филол. наук. - Бишкек, 2013;
25. Современная иллюстрированная энциклопедия «Литература и язык». Автор: Коллектив авторов | Русский язык и литература. - М, 2006. - С.115.
26. Суворова С.Л. Феноменология исследования понятий «дискурс» и «педагогический дискурс» // Вестник Южно-Уральского государственного университета, 2012. - № 4. - С.84-87.
27. Степанов Ю.С. Альтернативный мир. Дискурс. Факт и принцип причинности // Язык и наука конца XX века. - М.: Российский государственный гуманитарный институт, 1995. - С.35-73;
28. Туманова А.В. Языковая картина мира в художественном дискурсе писателя: Автореф. дис. д-ра. филол. наук. - Алматы, 2000. - 40 с.;

29. Фуко М.П. Археология знания // Пер. с фр. М.Б.Раковой, А.Ю.Серебрянниковой; вступ. ст. А.С.Колесникова. - Санкт Перербург: ИЦ Гуманитарная Академия, 2004.- 416 с;
30. Философия XX века. Краткий Словарь Философских Терминов [Elektron resurs]. Kirish rejimi: <http://www.philsci.univ.kiev.ua>
- 31.Чернявская В.Е. Интерпретация научного текста. - Санкт-Петербург: Наука, 2004. - 127 с.;
32. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистика асослари. - Тошкент: Академнашр, 2013. - Б.68.
33. Эргашев М.Р. Сиёсий дискурса қўлланувчи боғловчи феълларнинг функционал-семантик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. - Фарғона, 2020. - 144 б.;
34. Энциклопедия эпистемологии и философии науки [Elektron resurs] / Ин-т философии РАН. - Kirish rejimi: <https://phras.ru>
35. Benveniste E. General Linguistics. Florida: Coral Gables, University of Miami Press, 1974. - 317 p.;
36. Beaugrande de R. The Story of Discourse Analysis // Discourse as Structure and Process. Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction. Vol. I. - London - Thousand Oaks - New Delhi: SAGE Publications, 1997. - P.35-63;
37. Crystal D. Refining stylistic discourse categories. - Wales, 1969. - P. 35-46;
38. Harris Z. Discourse Analyses. Linguistic Society of America in Language. The USA: 1952, Volume 28, 30 p.;
39. McCarthy M. Discourse Analyses for English Teachers. - Cambridge: Cambridge University Press, 1991. - P. 5;
40. Verschueren J, Östman J & Blommaert J. Discourse Analysis // Handbook of Pragmatics. - Amsterdam and Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1995. - 239-253 pp.;